

BUXORO AMIRLIGIDA XO‘JALIK TURLARI BILAN BO‘G‘LIQ KASBLAR VA UY HUNARMANDCHILIGIDA ETNOEKOLOGIK MUNOSABATLAR

Ochilov Shohruh Yunus o‘g‘li

Temiz Davlat Universiteti Etnologiya ,

etnografiya va antropoliga yo‘nalishi 2-kurs magistranti

shohru.ochilov.90@bk.ru

Annotatsiya

Maqolada Buxoro viloyat aholisining hunarmandchilik kasblari va asrlar davomida shakllanib kelgan etnoekologik an‘analari haqida so‘z boradi.Xususan, Buxoro amirligi davrida uy hunarmandchiligi va uning ichki va tashqi savdodagi ahamiyati, uy hunarmandchiligi mahsulotlariga bo‘lgan talab yuqoriligi sabablari haqida to‘xtalib o‘tilgan.Shu bilan birga hunarmandchilik an‘analarida etnoekologik munosabatlar ahamiyati yoritilgan.

Kalit so’zlar: Uy hunarmandchiligi, Zarafshon vohasi, to’qimachilik,kulolchilik, temirchilik, misgarlik, rixtagarlik, ko‘nchilik, zargarlik , zarduzichilik,rangrezlik,kosiblik.

Аннотация

В статье рассказывается о ремеслах народов Бухарского края и этноэкологических традициях, формировавшихся веками. В частности, во времена Бухарского эмирата, домашнего промысла и его значения во внутренней и внешней торговле обсуждались причины высокого спроса на домашние промыслы. При этом подчеркивается значение этноэкологических связей в традициях ремесел.

Ключевые слова: Хозяйственные ремёсла, Зерафшанский оазис, текстиль, гончарное дело, кузнечное дело, медное дело, вышивка, кожевенное дело, ювелирное дело, ювелирное дело, живопись, рукоделие.

Abstract

The article tells about the crafts of the people of Bukhara region and the ethno-ecological traditions formed over the centuries. In particular, during the Bukhara Emirate, home handicrafts and its importance in domestic and foreign trade, the reasons for the high demand for home handicrafts were discussed. At the same time, the importance of ethno-ecological relations in the traditions of handicrafts is highlighted.

Keywords: Home handicrafts, Zarafshan oasis, textile, pottery, blacksmithing, coppersmithing, embroidery, tanning, jewelry, goldsmithing, painting, handicrafts.

KIRISH

Madaniyatdagi o'ziga xoslik kishilarning yashash muhitiga moslashishi, jamiyat hayotiy tizimini ta'minlash uchun xo'jalik faoliyati yuritishda alohida ahamiyatga ega. Madaniyat moddiy hamda ma'naviy madaniyat sohalariga bo'linadi. Uzoq vaqtlar fanda madaniyat deganda, faqat ma'naviy madaniyat nazarda tutildi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarning asosi, fan, axloq, nafosat bo'lib keldi. Moddiy madaniyat tadqiqotlar uchun qiziqarsiz hisoblangan. Industrial jamiyatning vujudga kelishi, uning texnikaviy taraqqiyoti va texnologiyalarning tez almashinishi jamiyatning barcha moddiy madaniyatini ilmiy asosda o'rganilishi zarurligini ko'rsatdi. Moddiy madaniyat muayyan tarixiy davrda jamiyatda mavjud bo'lgan buyumlarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini, natijalarini o'z ichiga oladi va bu ko'proq hunarmandchilik turlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Zero, hunarmandchilik hudud aholisi moddiy madaniyatining ko'zgusi vazifasini bajaradi

Asosan tabiiy geografik sharoit va iqlim ta'sirida milliy ruhiyat va xarakterni ifodalovchi moddiy madaniyat namunalari uzoq tarixiy davr davomida shakllanib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelish sharoitlarini belgilashda dastavval, uning geografik o'rni va tabiiy sharoitlariga e'tiborni qaratish lozim. Markaziy Osiyo mintaqasida serhosil vodiy va vohalar, cho'l va dashtlar, baland tog' va adirlarning yonma-yon joylashganligi dehqonchilik, chorvador, tog'da yashovchi qabila va xalqlar xo'jalik tarzi va o'ziga xos madaniyatini shakllanishi uchun imkon yaratgan. Turli tarixiy, tabiiy geografik sharoit ta'sirida respublikamizning turli hududlarida mustaqil va o'ziga xos, asosan qurilish loyihasi, ishlatiladigan materiallari, uslubi va bezaklari bilan ajralib turadigan tabiiy muhit bilan uyg'unlashib ketgan moddiy madaniyat namunalari vujudga keldi¹.

Hudud madaniyatida jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik ; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik turlari shakllangan².

Buxoroning karvon yo'llari chorrahasida joylashganligi, bu yerda shaxarlarning ko'payib, aholining zinchashib borganligi, vohaning qo'shni viloyatlar bilan savdo aloqalari uchun qulay joyda joylashganligi hunarmandchilikning nisbatan tez rivojlanishi uchun sabab bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyo mintaqasining iqtisodiy va siyosiy xayotida salmoqli o'rinnegallagan Zarafshon vohasida bu soha avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga meros tarzida o'tib kelgan Buxoroda hunarmandchilikning to'qimachilik,kulolchilik,temirchilik, misgarlik, rixtagarlik, ko'nchilik, zargarlik va zarduzichilik kabi yana o'nlab sohalari juda yaxshi rivolangan

¹ Hakimov.A,Rahmonov.A..Etnoekologiya rivojlanish bosqichlari. Online (2020) 508-511 betlar

² www.shosh.uz

edi³. Hunarmandchilikning mazkur tarmoqlari rivoji hudud aholisi turmush-tarziga va savdo-sotiq aloqalarida katta ahamiyat kasb etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buxoro amirligi hunarmandchiligin o‘rganishni hududda tarixiy-etnografik tadqiqotlar olib borgan olima O.A.Suxareva asarlarisiz tasavvur qilish qiyin. Olga Aleksandrovna Suxareva uzoq izlanishlardan so‘ng O‘rta Osiyodagi so‘nggi o‘rta asrlar shaharlari haqida tarixiy – etnografik monografiyalar yozdi: “К истории Бухарского ханства”(Тошкент 1956); “Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX вв .Ремесленная промышленность” (Тошкент 1962); “Бухара XIX - начала XX вв : позднефеодальный город и его население ” (Москва.,1966)⁴. Ayniqsa O.A.Suxarevaning 1966 yilda Moskvada nashr qilingan “Бухара XIX- начала XX вв : позднефеодальный город и его население” nomli ilmiy kitobining so‘nggi bo‘limi Buxoro shahri aholisining ijtimoiy turmush tarzi hamda mashg’ulotlari, hunarmandchilik, savdo - sotiq, katta yer egalari, harbiylar, ziyolilar kabi ijtimoiy qatlamlarning hayot tarzi tahlil qilingan⁵. Bunda shahar va qishloqlarda guzarlarda aholi mashg’ulotlari va xususan hunarmandlar hayoti yashash tarzi aks ettirilgan . V. Rozvadovskiyning Turkiston qishloq xo‘jaligi gazetasining 1916 –yil 5-sonidagi “Tadqiqot tajribasi” nomli maqolasida hududdagi ko‘nchilik kasbi ,uning turlari ,aholi va tashqi bozordagi talab darajasi va shunga o‘xshash ko‘plab ma’lumotlarni, Y.M. Yesherovaning “Гончарное производство Средней Азии”asridan va ko‘plab mahalliy tadqiqotchi olimlarimiz asarlarida hududdagi rangdezlik hunari va uning turli sir-asrorlari haqida ma’lumotlarni bilib olishimiz mumkin bo’ladi.

Buxoro asrlar davomida ham siyosiy-iqtisodiy ,ham ma’muriy markaz bo’lib kelganligi sababidan hududda aholi turmush-tarzi juda tig’iz shaklda ya’ni jo’shqin kechgan.Bu esa turli sohalar singari hunarmandchilik mahsulotlariga talab yuqori bo’lishiga va mazkur soha taraqqiyotiga sabab bo’lgan.

MUHOKOMA VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining vujudga kelish sharoitlarini belgilashda dastavval, uning geografik o‘rni va tabiiy sharoitlariga e’tiborni qaratish lozim. Markaziy Osiyo mintaqasida serhosil vodiy va vohalar, cho’l va dashtlar, baland tog’ va adirlarning yonmay-yon joylashganligi dehqonchilik, chorvador, tog’da yashovchi qabila va xalqlar xo‘jalik tarzi va o’ziga xos madaniyatini shakllanishi uchun imkon yaratgan. Turli tarixiy, tabiiy geografik

³ Ostonov.O.A. Zarafshon vohasida hunarmandchilik,tadbirkorlik va savdo-sotiq.T.:Sharq,2013.39-bet

⁴ O’tayeva Feruza Xolmatovna. O.A.Suxareva tadqiqotlarida Buxoro tarixi va etnografiyasining o’rganilishi . Scientific progress 1.6 (2021): 1010-1011-betlar.

⁵ Сухарева О. А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966. С. 19, 21; Она же. Позднефеодальный город. Бухара конца XIX - начала XX вв. Автореф. дис. ...д.и.н. Ташкент, 1962. С. 7; Она же. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). Ташкент. 1958. С. 12.

sharoit ta'sirida respublikamizning turli hududlarida mustaqil va o'ziga xos, asosan qurilish loyihasi, ishlatiladigan materiallari, uslubi va bezaklari bilan ajralib turadigan tabiiy muhit bilan uyg'unlashib ketgan moddiy madaniyat namunalari vujudga keldi⁶. Hunarmandchilik ham qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xom ashyo bor yerda (Rishtonda) kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'yalarida kemasozlik va boshqa shu kabi sohalar rivoj topgan.

XX asrning 20-yillariga qadar Buxoroda uy hunarmandchiligi va uning juda ko'plab tarmoqlari mavjud edi⁷. Xususan, amirlikning hunarmandchiligi sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada bo'lган bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi. Amirlikda ayniqsa bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Hududda ipakchilik Romitan, Kominjara (hozirgi Vobkent tumani hududida), Qorako'l va Xatirchi tumanlarida, yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerlarda yetishtirilgan ipak asosan Buxoro shahrida qayta ishlanib, tayyor maxsulotga aylantirilgan. Buxorolik hunarmandlar ipak matolar tayyorlash bobida katta bilim va tajribaga ega bo'lishgan⁸. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning zarbof to'nları, Shahrисabzning iroqi do'ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari amirlikdan tashqarida ham juda mashhur bo'lgan.

Buxoro hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu – kulolchilik edi. Xo'jalik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik amirlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Buxoro kulollari azaldan ma'lum bir idish yoki buyum yasashga ixtisoslashgan. Masalan, kulollar kosagar, ko'zagir va boshqa toifalarga mansub bo'lishgan. Zarafshon vohasi kulollari turli xil hajm va shaklga ega bo'lgan xum, ko'za, xurmacha, piyola, kosa, shokosa, dukki kosa, lagan, tovoq, tog'ora, tandir, quvur, tuvak, guldон, qaymoqdon, oftoba, chilim sarxonasi, bolalar o'yinchog'i (xushtak, qo'g'irchoq) keli, dastshuy kabi buyumlar tayyorlashgan⁹. Buxoro shahri kulollari Loyxo'rakon, Davoli paxsa, Xosagulod, Kokilayi xo'rd mahallalarida istiqomat qilishgan. Lekin ularning xumdonlari asosan shaharning Salaxona darvozasi tashqarisida joylashgan. Shahar kulolchiligidagi asosiy xom ashyo manbai hisoblangan sariq-qizg'ish tusli asl tuproq Qorovulbozor, Kuyimozor, Qarnab dashtlaridan qazib olingan. Tuproq tashib keltirish esa bu yumush bilan maxsus shug'ullanuvchi kishilar - gilkashlar zimmasiga tushgan. Sopol buyumlarni bo'yashda turli

⁶ Hakimov.A,Rahmonov.A..Etnoekologiya rivojlanish bosqichlari. Online (2020) 508-511 betlar

⁷ www.shosh.uz

⁸ Ostonov.O.A. Zarafshon vohasida hunarmandchilik,tadbirkorlik va savdo-sotiq.T.:Sharq.2013.39-bet

⁹ Пешерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. - М -Л., 1959. - С. 199

rangdagi suyuqlik-jo'shalardan foydalanilgan. Y.M. Peshyerovaning¹⁰ yozishicha buyumga asosiy rang bo'lmish qizil fon (tagsurx) berish uchun qizg'ish kesak suvda eritilib, buyumga surtilgan. Qora (tagsiyoh) rang tayyorlash uchun 8 kg gulbutaga 250 gr mayin yanchilgan magil — marganets moddasi aralashtirilib, suv bilan suyultirilgan. Ko'k (taglojuvard) rang tayyorlashda esa 8 kg gulbuta 500 gr kobalt bilan omuxtalashtirilib, suvda eritilgan¹¹. Hududda eng mashhur bo'lgan G'ijduvon kulolchilik buyumlari pishiqligi va naqshlarining rang-barangligi jihatidan O'rta Osiyoning boshqa kulolchilik markazlarida tayyorlangan buyumlardan ajralib turgan. Jumladan, G'ijduvonlik ustalar yasagan tovoq, duobi kosa, mashhadi kosa va turli xil ko'zalar, naqshinkor tovoqlarni tom ma'noda, haqiqiy san'at asarlariga qiyoslash mumkin edi. Binobarin, G'ijduvon kulollarining ijodida 60 dan ortiq an'anaviy shakllarga qat'iy rioxva qilish¹², bezaklarda inson his-tuyg'ularini aks ettirish kabi xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Kulolchilik buyumlarning shakli, tuzilishi, pishiqligi hamda sifati yaxlit mazmun kasb etib, kishida estetik zavq uyg'otadi. Bunday uyg'unlik, avvalo, sopol tayyorlash jarayoni bilan bog'likdir. Ustalar oq gilni (tuproqni) Buxoro atrofidagi Tozlik nomli joydan olib kelishgan. Tayyorlangan mahsulotning sirti yorilmasligi uchun unga qamish gulini qo'shishgan. G'ijduvon sopol buyumlari turli-tuman bezaklarga, gullar va o'simlik tasviriga boyligi bilan ajralib turgan. Ularda geometrik shakllar juda kam o'rinni egallagan. G'ijduvon kulollari turlicha sirlash usullarini qo'llashgan. Shuningdek, buyumlarni bezashda mo'yqalamdan ham keng foydalanishgan.

Amirlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar (turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan. Buxoroda metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to'rtta asosiy tarmog'i-temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlikni alohida ko'rsatish mumkin. Temirchilik sohasida ustalar qishloq xo'jaligida va kundalik turmushda ishlata digan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Bu davr temirchi ustalarning ish qurollari juda oddiy bo'lib, ular to'rtta dast - xoisk, xoiski pardoz, xoiski tashchin, putkdoh, uchta ombir — rost ombir, kaj ombir, qalam ombirlar, ikki xil egov — suvani paxal, suvani saraxadan, shuningdek, sangdon va gira bosqondan iborat edi. Ustaxonada ko'p xollarda 3 kishi — usta, xalfa va shogird mehnat qilishgan. Usta qiyin va murakkab ishlarni bajargan bo'lsa, xalfa ishlov berilayotgan metall buyumga ancha zalvorli ogirlikka ega bo'lgan bolg'a — putk bilan zarb berishda unga ko'maklashgan. Shogird esa bosqon yordamida o'chokdagi olovni alangalatib turgan. XIX asr oxirida Buxoro shaxrida faoliyat ko'rsatgan 150 nafar chilangardan 30 nafari ketmonsozlik, 50 nafari o'roqsozlik bilan mashg'ul bo'lishgan¹³.

¹⁰ O'sha manba, 199-bet

¹¹ O'sha manba, 199-be

¹² Alieva S. G'ijduvon kulolchiliq an'analari. // San'at. 2003. - № 3. - B .38

¹³ Ostonov.O.A. Zarafshon vohasida hunarmandchilik, tadbirkorlik va savdo-sotiq.T.:Sharq.2013.48-bet

1841-yilda Buxoroga kelgan M.M.Solovyov shunday deb yozgan edi: “Metallni badiiy ishlash Buxoroda juda rivojlangan .Buxoroda mis buyumlari O’rta Osiyonong hamma shaharlariga chiqariladi. Ularni yasagan ustalar o‘z kasbining yetuk san‘atkorlari hisoblanishadi. Alovida mahallalarda misgarlar va kandakorlar nihoyatna orginal usulda badiiy naqshlangan mis buyumlari tayyorlashadi.Shahar aholisi orasida ularning mahsulotiga talab juda yuqori edi¹⁴”. Ko’nchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po’stin va nim po’stin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va boshqalar uchun) tayyorlangan.Amirlikdagi hududlarda,xususan Zirabuloq, Karmana, G’ijduvon qishloqlarida teri oshlash tayyorlash jarayoni asosan bir xil xususiyatga ega edi . XIX asr oxiri-XX asr boshlarida voha qishloqlarida faoliyat ko’rsatgan ko’nchi hunarmandlarining bir qismi o’zaro kelishib, mablag’larini qo’shishib korparatsiya shaklidagi do’konlar tuzishgan. Tabiiyki, uyushib ishlagan hunarmandlarning ustaxonasi ham nisbatan kattaroq joyni egallagan. Masalan, G’ijduvondagi uyushgan hunarmandlar do’koni 2-3 tanob (40-60 sotix) yerni egallagan. Uning tarkibida 50-100 nafargacha ko’nchi ishlagan¹⁵. Amirlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor extiyojlarini taminlabgina qolmasdan ko’p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xususan ,hudud aholisi hayotida uy hunarmandchililing va shu kabi sohalardagi kasblarning ahamiyati yuqori sanalgan. Xususan , Buxoroda aholining 10% dan ortiq qismi hunarmandchilik bilan band bo’lganligi bunga misol bo’la oladi¹⁶ . Bundan tashqari Buxoro shahar tarixi bilan qiziqqan va bizga qimmatli ma’lumotlar qoldirgan rus olimasi Olga Aleksandrovna Suxarevaning ma’lumotlarida XX asr boshlarida Buxoroda 220 dan ortiq guzarlar bo’lganligi va guzar aholisi asosiy mashg’ulotlari haqida bergen ma’lumotlari¹⁷ ham yuqoridagi fikrimizning misol bo’la oladi.

XULOSA

Buxoro amirligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahammiyatga ega bo’lgan bo’lsada,ko’pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi. Butun o’rta asrlarda mavjud bo’lganidek,amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari (kasaba, sexga ega bo’lganlar).Uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o’rnatishga,mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog’liq edi. Amirlikdagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo’lib,uni saylab qo’yiladigan shaxs-rais yoki oqsoqol boshqargan. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va

¹⁴ Соловьев М.М. Экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. -М -Л.. 1936. - С . 67,68.

¹⁵ Рассудова Р.Я. Занятия населения. // Этнографические очерки Узбекского сельского населения. - М .. 1969. - С. 65

¹⁶ Xoliquova R.H.. XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari.tarix fan.dok.diss.Toshkent.2006.67-70-betlar

¹⁷ Barakayev J,Haydarov Y. Buxoro tarixi .T.:O’qituvchi.2001.107-bet

to'lovlar yig'imida, usta va shogird munosabatlarida, xo'jalik ishlarini yuritishda uyushma raisining xizmati katta bo'lgan.

Bundan tashqari XX asr 20-yillardidan Sobiq ittifoq davrida fabrika va zavodlar tomonidan hunarmandchilik mahsulotlarining ommaviy ishlab chiqarilishi , kollektivlashtirish siyosati natijasida hudud hunarmandchiliga katta zarba bo'ldi. Ammo , asrlar osha saqlanib kelayotgan an'analar , ustoz-shogirt tizimi natijasida hozirgi kunga qadar Buxoro hunarmandchiligining dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021 yil 29 apreldagi «Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qaroriga asosan Buxoroda viloyat hokimligi, Madaniyat vazirligi, «Hunarmand» uyushmasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, «O'zbekzarsanoat» uyushmasi hamkoriligida 21—25 may kunlari Xalqaro zardo'zlik va zargarlik, kashtado'zlik san'ati festivalini o'tkazish rejalashtirilgan edi. Festival doirasidagi tadbirlar avvalida matbuot anjuman bo'lib o'tdi. Matbuot anjumanida Jahon hunarmandchilik Kengashi tomonidan Buxoro shahriga «Hunarmandchilik shahri» maqomi berilgani e'lon qilindi va Buxoro shahriga bu haqidagi sertifikat topshirildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Пешерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. - М -Л., 1959.
2. Соловьев М.М. Экспедиция в Бухару в 1841-1842 гг. -М -Л.. 1936. - С .
3. Barakayev J,Haydarov Y. Buxoro tarixi .T.:O'qituvchi.2001.
4. Сухарева О. А. Бухара. XIX - начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). М., 1966.
5. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). Ташкент. 1958.
6. Сухарева О. А. Позднефеодальный город. Бухара конца XIX - начала XX вв. Автореф. дис. ...д.и.н. Ташкент, 1962.
7. Рассудова Р.Я. Занятия населения. // Этнографические очерки Узбекского сельского населения. - М .. 1969.
8. Ostonov.O.A. Zarafshon vohasida hunarmandchilik, tadbirkorlik va savdosotiqt. T.:Sharq.2013.
9. Alieva S. G'ijduvon kulolchiligi an'analari. // San'at. 2003. - № 3. - B .38
- 10.Xoliqova R.H.. XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari.tarix fan.dok.diss.Toshkent.2006.67-70-betlar
- 11.Hakimov.A,Rahmonov.A..Etnoekologiya rivojlanish bosqichlari. Online (2020) 508-511 betlar
- 12.O'tayeva Feruza Xolmatovna. O.A.Suxareva tadqiqotlarida Buxoro tarixi va etnografiyasining o'rganilishi . Scientific progress 1.6 (2021): 1010-1011-betlar.
- 13.www.shosh.uz